

FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

G'aniyeva Muxlisa

Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari to'g'risida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida bayon qilingan. Konstitutsiyamizda inson huquqlari va uning kafolatlari haqida tahlili va BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha belgilangan tamoyillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: BMT tashkiloti, Deklaratsiya, Xalqaro pakt, Xalqaro fakultativ bayonnoma, Ekosos, YeXHT, rezolutsiya, erkinlik xartiyasi, Konstitutsiya.

Аннотация: В данной статье описаны реформы, которые проводятся по гарантиям прав и свобод человека. В нашей конституции обсуждался анализ прав человека и их гарантий, а также принципов, установленных ООН в области прав человека.

Ключевые слова: Организация ООН, Декларация, Международный пакт, Международный факультативный протокол, ЭКОСОС, ОБСЕ, Резолюция, Хартия свободы, Конституция.

Abstract: This article describes the reforms that are being carried out on the guarantees of human rights and freedoms. In our constitution, an analysis of human rights and their guarantees and the principles established by the UN on human rights were discussed.

Key words: UN organization, Declaration, International Pact, International Optional Protocol, ECOSOC, OSCE, Resolution, Freedom Charter, Constitution

O'zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farqli o'laroq aynan istiqlol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur sharoitlar yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Avvalo shuni aytish kerakki, bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qo'yildi. Konstitutsiyamizning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" deb belgilab qo'yildi. ¹Shuningdek, Konstitutsiyamizning ikkinchi bo'limi "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalishining o'zi ham asosiy qonunning insonparvarligini ko'rsatadi. Uning har bir moddasida shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning siyosiy huquqlari, ularning kafolatlanishi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa munosabatlarda bir xil huquq va erkinliklarga egadir.

Adabiyotlar tahlili: Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqi va erkinliklariga doir bir qator xalqaro hujjatlar tan olindi va ular xalq orasida targ'ib qilindi. "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro fakultativ Bayonnoma" shular jumlasidandir. Xalqaro universal tashkilotlar sifatida BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilishning universal xalqaro mexanizmi mavjud bo'lib, u ko'p tarmoqlangan tuzilmadan iborat. BMTning asosiy organlari ham, yordamchi organlari ham u yoki bu darajada inson huquqlarini himoya etishga taalluqli masalalar bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2023 9-bet

shug`ullanadilar. BMT Bosh Assambleyasida inson huquqlari sohasida rezolyutsiyalar qabul qilish orqali a`zo davlatlar e`tiborini inson huquqlari borasidagi muammolarga qaratadi va bu borada hamkorlik qilishga da`vat etadi.

Muhokama: Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridan biri inson huquqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko`maklashish maqsadida inson huquqlari masalalarini o`rganish va tatbiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari inson huquqlari va erkinliklariga rioya etishni va hurmat qilishni ta`minlab beruvchi “Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash” (Ekosos) ham mavjud. Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash inson huquqlari va erkinliklari hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishini rag`batlantirish maqsadida tavsiyalar berishi va yordamchi organlar qo`mitalar va komissiyalar tuzilishi mumkin. Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) havfsizlikni ta`minlash masalalari bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilish borasida ham muhim ishlarni amalga oshiryapti. U BMT tomonidan inson huquqlari va ularni himoya qilishga doir barcha hujjatlarni e`tirof etish hamda ularda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishga intilmoqda. Uning BMT bilan bu boradagi hamkorligi Inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko`lamining oshib borishiga yordam bermoqda. Yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish bilan shug`ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllandi. Bu tizimda an`anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlarida iborat bo`lgan sudlov organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo`yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo`lgan inson huquqlari bo`yicha nosudlov organlari ham shakllandi.

Natija: Inson huquqlarini tushunib yetish nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Inson huquqlarini tabiiy huquqiy konsepsiyasini shakllantirishda XVI-XVIII asrda yashab o`tgan ingliz huquqshunosi J.Lokk, amerikalik T.Peyn va Jefferson, fransuzlar Russo, Monteskyo, Volter, gollandiyalik Grotsiy kabi ma`rifatparvar mutafakkirlar yetakchi o`rin tutadilar. Ularning odamlarning tengligi tug`ilishdan ularga ato etilgan yashash, erkinlik va xavfsizlik kabi huquqlarning daxlsizligiga doir g`oyalari burjua inqiloblari va burjua davlatlarining shakllanish jarayonidagi konstitutsiyalar Angliyada 1628-yildagi “huquqlar to`g`risidagi arznoma”, “huquqlar tog`risidagi loyiha”da, Amerikada “Verjiniya huquqlari to`g`risidagi deklaratsiya” (1689), “AQSh mustaqillik deklaratsiyasi” (1776) hamda huquqlar to`g`risidagi loyiha (1791) o`z ifodasini topdi.² Inson huquqlarini tartibga soluvchi hozirgi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” alohida o`rin tutadi. Uni “insoniyat tarixidagi eng noyob hujjat”, “Butun insoniyat uchun erkinlik xartiyasi” deb ta`riflashadi.

Xulosa : Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini himoya qilish va rag`batlantirish hamisha oliy o`rinda turadi. Amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar insonlar hayotini dunyoqarashini hamda turmush tarzini o`zgartirish bilan bir qatorda ularni huquq va erkinliklarini ham ta`minlab kelmoqda. Bugungi kunda fuqarolarning huquq va erkinliklar o`zining ahamiyati va ko`rinishini yaqqol tarzda ifodalashda Konstitutsiyamizning o`rni beqiyos. Aynan ana shu huquqlarning kafolatlanganli jamiyatdagi fuqarolar uchun birmuncha erkinliklar yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O`zbekiston” Toshkent-2023 9-bet
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr
3. <http://insonhuquqlari.uz/oz/menu/mehanizmy-zaschity>
4. <https://topuch.com/referat-mavzu-ozbekistonda-inson-huquqlari-va-erkinliklari-kaf-v2/index2.html>

² <http://insonhuquqlari.uz/oz/menu/mehanizmy-zaschity>



5. <https://ombudsman.uz/oz/docs/yangi-ozbekiston-sharoitida-inson-huquqlarini-himoya-qilishning-asosiy-omillari>

Worldlyknowledge.uz